Umuman olganda, mustaqil deklaratsiyalash mexanizmi mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlashda davlat nazoratini qo'llab-quvvatlovchi instrument sifatida qaralishi mumkin. Bu jarayon iqtisodiyotda tartibga solishning zamonaviy bosqichini shakllantirib, korxonalarni ichki imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga hamda xalqaro standartlarga moslashishga undaydi.

## MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

S. Mjakuškina va I. Lapiņa tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, muvofiqlikni baholash jarayonida asosiy bosqichlar ishlab chiqaruvchi tomonidan tashkil etilishi lozim. Yevropa Ittifoqi tartibga solish organlari ishlab chiqaruvchidan mahsulotning muvofiqligini tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini baholash uchun zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan texnik hujjatlarni tayyorlashni, ishlab chiqarish jarayoni va uning monitoringini tashkil etishni talab qiladi [3]. Fikrimizcha, bu talablar mahsulotning sifatini va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi faoliyatining tizimli va shaffof bo'lishini kafolatlaydi. Shu tarzda, texnik hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonini muntazam nazorat qilish orqali mahsulotning muvofiqligi va ishonchliligi yuqori darajada ta'minlanadi.

A. Gallup fikriga ko'ra, 2008-yilda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz natijasida muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan mahsulotlarni qaytarib olish holatlari kuzatilgan bo'lib, bu iste'molchilarning oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlarining xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [4]. Fikrimizcha, ushbu holat ishlab chiqaruvchilarning sifatni nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish, sertifikatlash jarayonlarini yanada qat'iylashtirish va iste'molchilarga mahsulot xavfsizligi bo'yicha yetarli ma'lumot berish zaruratini kuchaytiradi. Bu esa nafaqat iste'molchilar ishonchini tiklash, balki umumiy bozor barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

M. Глазатовaning fikricha, muvofiqlikni baholash termini deyarli barcha faoliyat turlarini qamrab oladi, ular talablarning bajarilganligini aniqlashga qaratilgan. Muallif ta'kidlaganidek, mahsulotlar muvofiqligini baholash obyektlari baholanishi zarur bo'lgan talablarning turiga bog'liq bo'lib, ular majburiy yoki ixtiyoriy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Majburiy muvofiqlikni baholashga normativ-huquqiy hujjatlar tomonidan belgilangan barcha mahsulotlar kiradi va ularni baholash jarayoni deklaratsiya, akkreditatsiya, attestatsiya, davlat nazorati, metrologik tekshiruv, majburiy sertifikatlash hamda davlat qabulidan o'tkazish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi [5]. Fikrimizcha, ushbu bosqichlar uchun aniqlangan tartib, muddat, maxsus tashkilotlar yoki vakolatli organlar mavjud bo'lib, ular rasmiy hujjatlarni berish huquqiga ega.

T. Боротынцева ilmiy izlanishlarida mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlash) xalqaro savdoni tartibga solishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif ta'kidlashicha, mahsulotlarni sertifikatlash xalqaro savdoda xavfsizlikni ta'minlash hamda savdo jarayonlarini soddalashtirishda asosiy rol o'ynaydi [6]. Shu bilan birga, sertifikatlash jarayoni mamlakatlar o'rtasida standartlar uyg'unligini yaratishga yordam beradi, bu esa global bozorlarda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

T. Yusupov fikriga ko'ra, bozor sharoitida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish sanoat sohalarida metrologik ta'minotni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Metrologik tizimni takomillashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori aniqlik, mahsulot sifati va xavfsizligini kafolatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy metrologiya nafaqat o'lchovlarning ishonchliligini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida texnologik jarayonlarning barqarorligini, standartlarga mosligini va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash eksport salohiyatini oshirish, ichki bozorda esa iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga imkon beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahsulotlar muvofiqligini deklaratsiyalash tizimining iqtisodiy-huquqiy asoslari tizimli va qiyosiy tahlil usullari orqali o'rganildi. Ilmiy izlanishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik reglamentlar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahsulotlarni ichki bozorga chiqarish jarayonida uning barcha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik reglamentlarga to'liq muvofiqligi rasmiy tasdiqlangan bo'lishi majburiy talab sifatida belgilanadi. Sertifikatlashtirish jarayoni vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilganda, ushbu faoliyat markazlashtirilgan boshqaruv asosida yuritilib, mahsulotning sifat ko'rsatkichlari, xavfsizlik talablari hamda amaldagi standartlarga mosligi har tomonlama baholanadi. Bu holat, o'z navbatida, mahsulot muomalaga

chiqarilishidan avval uning inson salomatligi, atrof-muhit xavfsizligi va texnik talablar nuqtayi nazaridan ishonchiligi ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv milliy bozorni sifatli, inson salomatligi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi mahsulotlardan himoya qilishda, shuningdek, iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoyalashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Sertifikatlashtirish tizimi nafaqat ichki bozorni tartibga solishga, balki tashqi iqtisodiy faoliyatda milliy mahsulotlarning xalqaro savdo standartlariga mosligini ta'minlash orqali eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Sertifikatlashtirish jarayonining markazlashtirilgan boshqaruv asosida amalga oshirilishi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, ishlab chiqaruvchilar mas'uliyatini oshirish va bozorni sifatli mahsulotlardan himoyalashning kafolatli mexanizmini shakllantiradi. Shu bois, sertifikatlashtirish tizimi mamlakatning texnik jihatdan tartibga solish siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, barqaror iqtisodiy rivojlanish va xalqaro integratsiya jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulotlarning muvofiqligini mustaqil ravishda baholash amaliyoti ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda bozorga kirish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv tadbirkorlik subyektlariga tashqi sertifikatlashtirish jarayonlariga bog'liq bo'lmagan holda mahsulotni normativ-huquqiy talablar asosida baholash va tasdiqlash imkoniyatini yaratadi. Natijada, ishlab chiqarish tannarxi pasayadi, jarayonlar soddalashtiriladi hamda yangi mahsulotlarni ichki bozorga tezkor ravishda chiqarish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, mahsulot muvofiqligini deklaratsiyalashning tadbirkorlar uchun sertifikatlashtirishga nisbatan qator afzalliklari mavjud. Avvalo, bu mexanizm tashqi ekspertiza va davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan murakkab tekshiruv jarayonlarini qisqartiradi, shu bilan birga, tadbirkorlarning vaqt va moliyaviy resurslarini tejashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mustaqil deklaratsiya asosida ishlab chiqaruvchi sifat nazorati va texnik talablarni o'zining ichki menejment tizimida amalga oshiradi, bu esa ishlab chiqarish jarayonining moslashuvchanligini oshiradi va raqobat sharoitida bozor talablariga tezkor javob qaytarish imkonini beradi.

Mazkur mexanizm bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining erkinligi va mas'uliyatini uyg'unlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, deklaratsiyalash orqali mahsulotning normativ hujjatlarga muvofiqligi ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlanadi, bu esa uning brend obro'sini oshirish, iste'molchilarning ishonchini mustahkamlash hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, deklaratsiyalash tizimi tadbirkorlar uchun nafaqat iqtisodiy jihatdan qulay, balki strategik ustunlik beruvchi mexanizm sifatida ham qaralishi mumkin. Quyidagi 1-rasmda tadbirkorlar uchun mahsulotlar muvofiqligini deklaratsiyalashning afzalliklari keltirilgan.

#### Vaqt va xarajat tejamkorlik

- Deklaratsiya berish jarayoni odatda sertifikat olishdan tezroq va arzonroq bo'ladi. Sertifikatlashtirishda laboratoriya sinovlari va organ tekshiruvlari ko'proq vaqt va mablag' talab qiladi.

#### Mustaqillik va soddalashtirilgan tartib

- Deklaratsiyada tadbirkor ko'p hollarda mahsulotning texnik hujjatlariga tayanib o'zi yoki vakolatli laboratoriya orqali sinov natijalarini taqdim etadi. Sertifikatlashtirishda esa davlat yoki akkreditatsiyadan o'tgan organ to'liq tekshiruv va tasdiqlashni amalga oshiradi.

#### Tez bozorga chiqish imkoniyati

- Deklaratsiya orqali mahsulotni bozorga chiqarish uchun rasmiylashtirish muddati qisqaradi. Bu yangi mahsulotlarni yoki mavsumiy tovarlarni tez sotuvga chiqarishda juda qo'l keladi.

#### Byurokratik to'siqlarning kamayishi

- Sertifikatlashtirishda ko'p bosqichli rasmiy protseduralar mavjud bo'lsa, deklaratsiyada jarayon ancha qisqa va qog'ozbozlik kam bo'ladi.

#### Xalqaro amaliyotga yaqinlashish

- Ko'plab mamlakatlarda ayrim mahsulotlar uchun deklaratsiyalash asosiy muvofiqlik usuli sifatida qabul qilingan bo'lib, bu eksport jarayonini ham yengillashtirishga xizmat qiladi.

1-rasm. Tadbirkorlar uchun mahsulotlar muvofiqligini deklaratsiyalashning ijobiy jihatlari



Mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotning amaldagi texnik reglamentlar, standartlar yoki boshqa normativ hujjatlarga mosligini qonunchilikda belgilangan tartib asosida rasmiy e'lon qilish jarayonidir. Ushbu mexanizm mahsulotning xavfsizligi, sifati hamda foydalanish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan kafolatlashga xizmat qiladi.

Deklaratsiyalash tizimi ishlab chiqaruvchidan yuqori darajadagi mas'uliyat va sifat nazoratini talab etadi, chunki mahsulotning barcha talablarga javob berishi uchun to'liq javobgarlik aynan deklaratsiya beruvchiga yuklatiladi. Shu bois muvofiqlik deklaratsiyasi mahsulot sifatini tasdiqlashning muhim huquqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Quyidagi 1-jadvalda mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash yo'li bilan tasdiqlash bosqichlari keltirilgan.

1-jadval. Mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash yo'li bilan tasdiqlash bosqichlari [2]

| Bosqich-lar | Subyekt-lar                 | Tadbirlar                                                                                                                                                                                                                               | Bajarish muddati               |
|-------------|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|
| I           | Ariza beruvchi              | Muvofiqlikni deklaratsiyalash sxemasini tanlaydi hamda mazkur Nizom talablariga asosida muvofiqlik deklaratsiyasini shakllantiradi va tasdiqlaydi.                                                                                      | Ariza beruvchi xohishiga ko'ra |
| II          | Ariza beruvchi              | Tasdiqlangan muvofiqlik deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazish uchun mahsulotlarni sertifikatlashtirish organiga yuboradi.                                                                                                               | Ariza beruvchi xohishiga ko'ra |
| III         | Sertifikatlashtirish organi | Muvofiqlik deklaratsiyasi hamda uni shakllantirish uchun asos bo'lgan hujjatlar to'plami tahlili hamda unda keltirilgan mahsulotni identifikatsiya qilish uchun ariza beruvchi bilan shartnoma tuzadi.                                  | 1 ish kuni mobaynida           |
| IV          | Sertifikatlashtirish organi | Shartnomaga asosan ariza beruvchi tomonidan haq to'langandan so'ng muvofiqlik deklaratsiyasi hamda uni shakllantirish uchun asos bo'lgan hujjatlar to'plamini tahlil qilib o'rganib chiqadi.                                            | 1 ish kuni mobaynida           |
| V           | Sertifikatlashtirish organi | Muvofiqlik deklaratsiyasida keltirilgan mahsulotni identifikatsiya qiladi.                                                                                                                                                              | 1 ish kuni mobaynida           |
| VI          | Sertifikatlashtirish organi | Muvofiqlik deklaratsiyasi hamda uni shakllantirish uchun asos bo'lgan hujjatlar to'plami, mahsulot identifikatsiyasi ijobiy bo'lmaganda ariza beruvchiga muvofiqlik deklaratsiyasini ro'yxatga olinishi asoslanirilgan holda rad etadi. | 1 ish kuni mobaynida           |
| VII         | Sertifikatlashtirish organi | Mahsulot muvofiqlik deklaratsiyasi hamda uni shakllantirish uchun asos bo'lgan hujjatlarning to'plami, mahsulot identifikatsiyasi ijobiy bo'lsa, muvofiqlik deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazadi.                                      | 1 ish kuni mobaynida           |

Mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, dastlab ariza beruvchi muvofiqlik deklaratsiyasi sxemasini tanlaydi va uni amaldagi nizom talablariga muvofiq shakllantiradi. So'ngra tasdiqlangan deklaratsiya sertifikatlashtirish organida ro'yxatdan o'tkaziladi. Dastlabki bosqichlarning bajarilish muddati asosan ariza beruvchining tashabbusiga bog'liq bo'ladi.

Keyingi bosqichlarda sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan muvofiqlik deklaratsiyasi va asoslovchi hujjatlarni tahlil qiladi, mahsulotni identifikatsiya qiladi hamda natijalarga ko'ra qaror qabul qiladi. Mahsulot identifikatsiyasi salbiy bo'lsa, deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazish rad etiladi, ijobiy bo'lsa — ro'yxatga olinadi. Yakuniy bosqichlar odatda 1 ish kuni ichida amalga oshiriladi, bu esa jarayonning tezkorligini ta'minlaydi.

2-jadval. Elektrotexnika va tekstil mahsulotlarini sertifikatlash va deklaratsiyalash jarayonlari xarajatlari (eski va yangi tartib bo'yicha) taqqoslama jadvali<sup>1</sup>

| T/r                         | Jarayon                                                                                                                             | O'lchov birligi | Sertifikatlash         | Deklaratsiyalash<br>(eski tartib)                | Deklaratsiyalash<br>(yangi tartib) |
|-----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------------------|--------------------------------------------------|------------------------------------|
| Elektrotexnika mahsulotlari |                                                                                                                                     |                 |                        |                                                  |                                    |
| 1                           | Namuna tanlash                                                                                                                      | so'm            | 145 000 –<br>1 160 000 | Narxlar<br>sertifikatlashtirish<br>bilan bir xil | –                                  |
| 2                           | Sinovlar ( <i>Sinov ko'rsatkichi<br/>va turiga bog'liq holda</i> )                                                                  | so'm            | 493 920 – 7 879<br>200 |                                                  | 493920-7879200                     |
| 3                           | Hujjatlarni tekshirish ( <i>arizada<br/>ko'rsatilgan mahsulotning<br/>me'yoriy hujjatini tahlil qilish</i> )                        | so'm            | 290 000 –<br>725 000   |                                                  | –                                  |
| 4                           | Arizani ko'rib chiqish                                                                                                              | so'm            | 72 500 – 145 000       |                                                  | –                                  |
| 5                           | Ariza bo'yicha qaror qabul<br>qilish                                                                                                | so'm            | 145 000                |                                                  | –                                  |
| 6                           | Sinov dasturini tayyorlash                                                                                                          | so'm            | 290 000 –<br>870 000   |                                                  | –                                  |
| 7                           | Namunalarni sinov<br>laboratoriyalariga yetkazish                                                                                   | so'm            | 217 000 –<br>435 000   |                                                  | –                                  |
| 8                           | Ma'lumotlarni tahlil qilish<br>va muvofiqlik sertifikati<br>rasmiylashtirish yoki xat<br>tayyorlash yuzasidan qaror<br>qabul qilish | so'm            | 145 000 –<br>290 000   |                                                  | –                                  |
| 9                           | Ishlab chiqarish sharoitini<br>o'rganish<br>( <i>seriyali ishlab chiqarish<br/>uchun</i> )                                          | so'm            | 580 000 –<br>1 160 000 |                                                  | –                                  |
| Tekstil mahsulotlari        |                                                                                                                                     |                 |                        |                                                  |                                    |
| 1                           | Namuna tanlash                                                                                                                      | so'm            | 145 000 –<br>1 160 000 | Narxlar<br>sertifikatlashtirish<br>bilan bir xil | –                                  |
| 2                           | Sinovlar ( <i>Sinov ko'rsatkichi<br/>va turiga bog'liq holda</i> )                                                                  | so'm            | 305 760 – 1 905<br>920 |                                                  | 305760 –<br>1905920                |
| 3                           | Hujjatlarni tekshirish ( <i>arizada<br/>ko'rsatilgan mahsulotning<br/>me'yoriy hujjatini tahlil qilish</i> )                        | so'm            | 290 000 –<br>725 000   |                                                  | –                                  |
| 4                           | Arizani ko'rib chiqish                                                                                                              | so'm            | 72 500 -145 000        |                                                  | –                                  |
| 5                           | Ariza bo'yicha qaror qabul<br>qilish                                                                                                | so'm            | 145 000                |                                                  | –                                  |
| 6                           | Sinov dasturini tayyorlash                                                                                                          | so'm            | 290 000 –<br>870 000   |                                                  | –                                  |
| 7                           | Namunalarni sinov<br>laboratoriyalariga yetkazish                                                                                   | so'm            | 217 000 –<br>435 000   |                                                  | –                                  |
| 8                           | Ma'lumotlarni tahlil qilish<br>va muvofiqlik sertifikati<br>rasmiylashtirish yoki xat<br>tayyorlash yuzasidan qaror<br>qabul qilish | so'm            | 145 000 –<br>290 000   |                                                  | –                                  |
| 9                           | Ishlab chiqarish sharoitini<br>o'rganish<br>( <i>seriyali ishlab chiqarish<br/>uchun</i> )                                          | so'm            | 580 000 –<br>1 160 000 |                                                  | –                                  |

1 Muallif ishlanmasi



Muvofiqlikni deklaratsiyalashda mahsulotning xususiyati, xavf darajasi, ishlab chiqarish hajmi va bozorga chiqarilish talablari hisobga olinadi. Shunga muvofiq turli deklaratsiya sxemalari qo'llanilib, ular texnik reglamentlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Sxema tanlovi ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchining mas'uliyati, shuningdek nazorat va sinov usullariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Mahsulotlarni majburiy sertifikatlash tartibotidan voz kechilib, ularning sifati va xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqaruvchi yoki importyor zimmasidagi mas'uliyatni kuchaytirish orqali muvofiqlikni deklaratsiyalash tizimiga o'tilmoqda. Mazkur yondashuv mahsulot muvofiqligini baholash jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish va xalqaro amaliyotga moslashishni ta'minlashga qaratilgan.

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar eski va yangi tartiblar bo'yicha taqqoslanib, jarayonlarning bosqichma-bosqich xarajat ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Ushbu yondashuv nafaqat mahsulotlarning muvofiqligini baholashdagi xarajat omillarini aniqlash, balki tartibga solish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini ham o'rganishga imkon beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, elektrotexnika mahsulotlarida sinov jarayonlari eng katta xarajatlarni tashkil etadi (493 920 – 7 879 200 so'm). Bu holat mazkur mahsulotlarning inson hayoti va salomatligiga bevosita ta'siri hamda xalqaro standartlarga qat'iy rioya etish zaruriyati bilan izohlanadi. Tekstil mahsulotlarida esa sinov xarajatlari nisbatan pastroq (305 760 – 1 905 920 so'm), biroq ular sanitariya-gigiyena, xavfsizlik va eksport talablari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Eski tartibda deklaratsiyalash deyarli sertifikatlash bilan bir xil xarajatlarni talab qilgan bo'lsa, yangi tartibda jarayon soddalashtirilib, faqat sinov xarajatlari qoldirilgan. Hujjatlarni ko'rib chiqish, ariza asosida qaror qabul qilish va ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish bosqichlari bekor qilingan. Natijada tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy yuk kamayib, tartib-taomillar optimallashtirilgan.

Ilmiy jihatdan, yangi tartib ishlab chiqaruvchilarning vaqt va resurs xarajatlarini qisqartiradi, mahsulotni bozorga tez chiqarish imkonini yaratadi hamda xavfsizlikni ta'minlovchi sinov bosqichini ustuvor qiladi. Bu esa xalqaro muvofiqlik baholash amaliyotiga yaqinlashish, eksport salohiyatini oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda mahsulotlarning muvofiqligini baholash jarayonini majburiy sertifikatlashdan deklaratsiyalash tartibotiga o'tkazish ishlab chiqarish va savdo amaliyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu islohot natijasida byurokratik to'siqlar qisqarib, tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy yuk kamaymoqda, mahsulotni bozorga tezkor chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Jarayonning asosiy e'tibori xavfsizlikni kafolatlaydigan sinov bosqichiga qaratilgani esa iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda mahsulotlar muvofiqligini baholashning deklaratsiyalash tizimiga o'tkazilishi ishlab chiqarish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, istiqbolda quyidagi natijalarga olib keladi:

Sanoat raqobatbardoshligini oshirish – ishlab chiqarish tannarxining kamayishi va bozorga tez kirish imkoniyati milliy mahsulotlarning bozordagi ulushini kengaytiradi va import qilinuvchi mahsulotlar hajmini kamayishiga olib keladi.

Eksport salohiyatining yuksalishi – xalqaro talablarga moslashuv natijasida milliy mahsulotlar xorijiy bozorlar uchun yanada jozibador bo'ladi.

Innovatsion rivojlanish – vaqt va resurslarning tejab qolingani qismi yangi texnologiyalar va sifatni oshirishga yo'naltiriladi.

Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi – soddalashtirilgan tartib-taomillar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Iste'molchi ishonchining ortishi – xavfsizlikni kafolatlaydigan sinov jarayonining majburiyligi tufayli mahsulot sifati barqaror bo'lib qoladi.

Davlat nazoratining samaradorligi – resurslar muhim xavf guruhidagi mahsulotlarni nazorat qilishga yo'naltiriladi, bu esa tartibga solish tizimini takomillashtiradi.

Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatimizda muvofiqlikni baholash tizimining iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirib, ichki bozorni xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon xalqaro savdo amaliyotida milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning global iqtisodiy makondagi integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 2023-yil 27-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PF-41-son Farmoni. 2024-yil 27-fevral.



3. S.Mjakuškina, I.Lapiņa. Product Conformity Assessment within the Integrated Management System: Manufacturing Compliance and Customer Safety. Proceedings of The 22nd World Multi-Conference on Systemics, Cybernetics and Informatics (WMSCI 2018). P. 19-24.
4. Gallup, A.M., 2008. The Gallup Poll Cumulative Index: Public Opinion, 1998-2007. Rowman and Littlefield, Lantham, Maryland.
5. Глазатова М.К. Оценка соответствия в системе нетарифного регулирования и в условиях цифровизации // Торговая политика. 2019. №2 (18). С.81-106.
6. Воротынцева Т.М. Подтверждение соответствия товаров как механизм регулирования международной торговли // Вестник ГУУ, Экономика: проблемы, решения и перспективы. 2016. №5. С.57-59.
7. Yusupov T. Bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda sanoat sohalari metrologik ta'minotini rivojlantirishning asosiy jihatlari. Development of science. Vol. 4, April 2025/4. 230-238.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)